



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JAHON HAMJAMIYATIDA TUTGAN
O'RNI. OLIB BORILAYOTGAN SIYOSATI

Ermo'minov Ro'zali Norquchqor o'g'li

Geografiya yo'nalishi Qarshi davlat universitetini 3-kurs talabasi

E-mail: ruzaliermuminov@gmail.com (+998) 99 157 27 10

Ermo'minov Bo'ri Norqo'chqor o'g'li

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishining 3-kurs talabasi

Jabborov Solijon Ergash o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti 1-kurs talabasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida 1991 -yil 1-sentyabrda tashkil topgan. O'zbekiston geografik joylashuviga ko'ra Yevrosiyo va Markaziy Osiyoning markaziy qismida Amudaryo va Sirdaryo daryolari havzasida joylashgan. O'zbekiston shimoliy-sharqiy qismida Qozog'iston, sharqiy va janubiy-sharqiy qismida Qirg'iziston va Tojikiston, janubida Afg'oniston va g'arbida Turkmaniston davlatlari bilan chegaradosh. Hududi 448,9 ming kv.km eng rivojlangan davlatlar Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Italiya kabi davlatlar hududidan ham katta. O'zbekiston ma'muriy jihatdan Qoraqalpog'iston Respublikasi 12-ta viloyat hamda Toshkent shahridan iborat. 1998-yil 8-dekabrda qabul qilingan konstitutsiyaga muvofiq O'zbekiston demokratik respublikadir. Aholisining 84% i o'zbeklar hamda tojiklar, ruslar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va qirg'izlar yashaydi.

O'zbekiston hududida qadimgi davrlarda ham Qang', Davan va Kushon kabi davlatlar shakllanib mahsulot ayriboshlashgan. Ilk o'rta asrlarda O'zbekiston hududiida Xioniyalar, Kidariylar, Eftalitlar davlatlari hukmron bo'lgan¹. Ushbu davrda katta hududni egallagan mazkur davlatlar qo'shni davlatlar bilan keng ko'lamli savdo siyosatni olib borgan. Temuriylar davrida savdo aloqalar geografiyasi yanada kengaydi. Bizga ma'lumki miloddan avvalgi XII asrdan to milodiy XVI asrgacha bo'lgan Sharqni G'arb bilan bog'laydigan "Buyu Ipak yo'li" O'zbekiston hududiidan o'tgan. Natijada ilm-fan, savdo-sotiq va hunarmandchilik rivojlandi. Bu yo'lining quruqlikdan dengizga o'tishi bilan mamlakat iqtisodiy qulayligi barham topdi. O'zbekiston jahonning 150 dan ortiq mamlakatlari bilan diplomatik aloqani yo'lga qo'ygan². O'zbekiston bugungi kunda dengizga chiqish imkoniyati bo'lmaganligi sababli yuk tashish quruqlik transporti (temiryo'l, avtomobil), havo va quvur orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi halqa vazifasini o'taydi. Bundan tashqari Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Rossiya, AQSH, Hinduston, Turkiya, GFR, Fransiya Tayland va Bangladesh kabi davlatlar bilan tovar aylanmasi ustunlik qiladi.

1992-yil 2-martda O'zbekiston BMTning teng huquqli a'zosi sifatida qabul qilingan. O'zbekiston bir qator ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, jumladan, Jahon banki, Xalqaro

¹ Iqtisodiy geografiya Abdalova, Tojjeva Toshkent 2013y- 94 b

² Dunyo mamlakatlari insklopediyasi Toshken Davr nashriyoti-2013y.-143b



valyuta fondi (XVF), Jahon savdo tashkiloti (JST), shuningdek Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat taqsimoti, Xalqaro bolalar tashkiloti- (YuNISEF), Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXXT), Jahon intellektual mulk tashkiloti, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlarning ham a'zosi hisoblanadi³. 2001-yilda O'zbekiston Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) a'zo bo'ldi. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlardan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni, do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. 1994-yil 1-sentyabrda GFRda O'zbekiston Respublikasining Yevropada birinchi elchixonasi ochildi. Chet el investitsiyalari hamkorligida O'zbekistonda ulkan salohiyatga ega korxonalar Janubiy Koreya "UZ-Daewoo Avto", AQSH bilan "Zarafshon-Nyumont", AQSH, Fransiya, Turkiya va Yaponiya bilan Markaziy Osiyoda eng yirik Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Yaponiya "ISUZU" va Germaniyaning "MAN" atobus va yuk mashinalar zavodi hamkorkikda qurilgan. Mamlakatimizga investirlarni jalb qilish va mamlakatda turizm salohiyatini rivojlantirishga etibor berilmoqda. 2019-yilgi pandemiya oqibatida butun dunyo daromadining pasayishi va ishsizlikni ko'payganligi kuzatildi. Rossiya va Ukrainadagi qonli mojarolar esa savdo aloqalarga salbiy ta'sir ko'rsatganini ta'kidlash lozim.

O'zbekiston yaqin o'tmishda xomashyo eksport qiluvchi mamlakatdan, mahsulot qayta ishlab, tayyor mahsulot eksport qiluvchi mamlakatlar qatoriga kirmoqda. Mamlakatimizda mehnatga yaroqli aholi yarmidan ham ko'pchiligini tashkil qiladi. Aholini bandligini ta'minlash va mehnatni muhofaza qilish to'g'risida asosiy muammolardan biriga aylanib bormoqda. Kambag'alchilikni qisqartirish bo'yicha shaxsan prezidentimiz Shavkat Mirziyayev tomonidan Kambag'alchilikni qisqartirish vazirligi tashkil etilib milliy darajaga ko'tarildi. O'zbekistonda bu borada rivojlangan davlatlar tajribalar o'rganilib bir nechta qonunlar radifikatsiya qilindi. Bugungi kunda jahon mamlakatlari singari O'zbekistonda ham turli darajadagi muammolarga duch kelmoqda. Jumladan: Ekologik muammolardan mamlakatimizda Orol dengizining qurishi va qurigan joyidan tuz, qum bo'ronlar kuzatiladi. Bu mintaqada 5 mln dan ortiq aholi istiqomat qiladi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish va Orol dengizini qurish masalalariga alohida to'xtalgandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saparova G.K. Dexkanova N.S. Galimova F.R. Iqtisodiy geografiya va ekologiya "Toshkent-2019"
2. Z. Abdalova Z. Tojiev A. Iqtisodiy geografiya Toshkent "iqtisodiy-moliya" 2013
3. N. Jo'rayev A. Zamonov O'zbekiston tarixi Toshkent 2018
4. P. Musayev J. Musayev Geografiya Toshkent 2019

³ O'zbekiston tarixi 11 sinf Toshkent-2018, 130 bet



5. B.A. Bahridinov S.A. Zokirova G.A.Abdurahmonova S.E.A'zam Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi Toshkent-2008
6. M.Mamajonov O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi Toshkent-2019
7. A.CH. Boboev Iqtisodiy geografiya va ekologiya Buxoro 2021
8. Ensiklopediya Dunyo mamlakatlari Toshkent "Davr nashriyoti-2013
9. www.stat.uz
10. www.geograpy.uz